

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION IQLIMINING
NAZARIY ASOSLARI**

Shukurov Nurbek Akbarovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 19.08.2025

Revised: 20.08.2025

Accepted: 21.08.2025

KALIT SO'ZLAR:

investment, investment flow, investment attractiveness, capital, foreign investment, domestic investment.

ANNOTATSIYA:

Ushbu ilmiy tahliliy materialda investitsiya tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, turli iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro nazariy qarashlar asosida izohlangan. Investitsiya – bu daromad yoki ijtimoiy samara olish maqsadida moddiy, nomoddiy va intellektual boyliklarga kiritiladigan mablag'lar bo'lib, u mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiylaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Turli manbalarda investitsiya kapital qo'yilmasi, zaxira, aktivlarga mablag' sarflash, ishlab chiqarishni kengaytirish yoki xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish vositasi sifatida talqin etilgan. O'zbekiston qonunchiligidagi esa investitsiya – iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy, nomoddiy ne'matlar va ularga doir huquqlar sifatida belgilanadi.

Investitsiya siyosati mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini muhim yo'nalişlaridan biri hisoblanib, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida unga yangicha yondashuv talab qilinadi.

"Investitsiya" atamasi lotin tilidagi "invest" so'zidan kelib chiqqan bo'lib "qo'yish", "mablag'ni safarbar etish", "kapital qo'yilmasi" ma'nosini bildiradi. Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni

anglatadi. Ko‘pgina hollarda “investitsiya” tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta’riflanadi (<http://www.biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja/43765-xorijiy-invstitsiyalar--iqtisodiyot-tayanchi>).

Bugungi kunda investitsiya keng qamrovli tushuncha bo‘lib, turli obyektlarga, ijtimoiy – iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirish uchun iqtisodiy foyda va ijtimoiy samara olishni ko‘zlab, mamlakat ichkarisida yoki boshqa xorijiy davlatga kiritiladigan uzoq muddatli kapital qo‘yilmadir.

O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda qabul qilingan “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida “investitsiyalar – iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlar” (O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni O‘zbekistonning yangi qonunlari. – Toshkent: Adolat, 1999. – B. 13) deb ta’rif beriladi.

Iqtisodchi olimlardan U.F.Sharp o‘zining «Investitsiya» darsligida «Investitsiyalar kelgusida qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatlikdan voz kechishdir», - deb ta’riflaydi (U.Sharp, G.Aleksandr, Dj.Beyli. Investitsiya, Per. S. Ang.-M.: “Infra”. 2000. 979 b.). Ushbu olimning fikricha «Investitsiyalash» atamasini quyidagicha sharhlaydi: «Kelajakda foyda olish uchun bugun puldan ajralishdin» va «real yoki moliyaviy aktivlarga investitsiyalash mumkin», - deb hisoblaydi.

Iqtisodchi olim K.Eklundning fikricha esa «investitsiya – bu kelajakda ko‘proq iste’mol qilish sharoitiga ega bo‘lish uchun ertangi kunga qoldirilgan narsa. Uning bir qismi hozirda ishlatilmasdan zaxiraga qoldiriladigan iste’mol buyumlari bo‘lib, boshqa qismi esa bu ishlab chiqarishni kengaytirishga yo‘naltirilgan resurslardir» (Klas Eklund. Effektivnaya ekonomika: Shvedskaya model. M. “Ekonomika” 1991, 96 s.). Bu ta’rif «kapital qo‘yilmalarga» berilgan ta’rifga ko‘proq mos tushadi.

J.Keyns “Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” kitobida “Investitsiya – ishlab chiqarish davri davomida paydo bo‘lgan kapital qo‘yilma qiymatining joriy o‘sishidir. Bu o‘sha davrdagi foydaning iste’mol uchun ishlatilmagan qismi hisoblanadi” (Keyns Dj. M. Obshchaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg : per. s angl. -M: Gelios ARV, 1999. -352 c.) deb ta’rif beradi.

Iqtisodchi olim P. Samuelsonning fikriga ko‘ra, investitsiyalash daromadlarni joriy iste’mol uchun ishlatmasdan, ularni kelajakda ko‘proq foyda olib, faoliyatni kengaytirish uchun sarflashdir (Samuelson Pol.A. Ekonomika : Izdanie 15-ye. Per. s angl. -M: Binom - KnoRus, 1999. -800 c.).

L.Dj.Gitman, M.L.Djonklarning “Investitsiyalash asoslari” monografiyasida “Investitsiya – kapitalni joylashtirish usuli bo‘lib, u foyda qiymatini saqlab turishi va (yoki) uning o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kerak” (Gitman, Lorens Dj. Osnovы investirovaniya : Uchebnoe posobie Per.s angl. -M: DELO , 1997. -1008 s.) deyiladi. N.S.Guskov, S.S.Guseriev va boshqalarning “Investitsiyalar, ularni jalb etish formalari va metodlari” darsligida “Investitsiya va kapital qo‘yilmalar sinonim bo‘lib, ularga investorlar tomonidan foyda olish maqsadida kiritiladigan mulkiy va intellektual boyliklarning hamma ko‘rinishlari kiradi” (Guskov N. S., Guseriev S.S i dr. Investitsii. Formы i методы ix privlecheniya. M., 2001.) deyiladi.

N.V.Igoshinining “Investitsiyalar” darsligida “Investitsiyalar – sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlariga uzoq muddatli kapital qo‘yilma ko‘rinishida kiritiladigan sarflarning yig‘indisidir” (Igoshin N.V. Investitsii. Organizatsiya upravleniya i finansirovanie : Uchebnoe posobie -M: Finansы, YuNITI, 2000. -413 c.), deb ta’riflanadi.

Rossiyalik olim A.M.Margolin “Investitsiyalar” darsligida “Investitsiyalar – pul mablag‘lari, maqsadli bank jamg‘armalari, qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar, mashina, asosiy vositalar va boshqa mulk ko‘rinishidagi kapital qo‘yilmalarni, shuningdek, pul qiymatiga ega bo‘lgan mulkiy va nomulkiy huquqlarni investorning strategik maqsadlarini ko‘zlab ishlab chiqarish va boshqa faoliyat obyektlariga kiritishdir” (Margolin. A.M. Investitsii. M.: RAGS, 2006.– S. 464.), deb ta’riflaydi.

«Ekonomiks: prinsipy, problemy i politika» darsligida investitsiya tushunchasi «investitsiya (investment) – bu moddiy zaxiralarning ko‘payishi, ishlab chiqarish vositalarining jamg‘arilishi va ishlab chiqarishga xaratatlardir» deb ta’riflangan.Ularning fikricha investitsiyalarni barqaror rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda eng muhim omillardan biri sifatida baholaydilar (Ekonomiks: prinsipy, problemy i politika: Uchebnik / Makkonnell K.R., Bryu S.L., Flinn Sh.M., - 19-ye izd., angl. - M.:NIS INFRA-M, 2017. - 1028 s.).

Rossiyalik iqtisodchi olim Ye.V.Mixaylova va L.L.Igoninalar tomonidan berilgan ta’riflar umumiy va sodda qilib tushuntirilgan bo‘lib, bozor iqtisodiyoti manfaatlariga mos talqin qilingan. Xususan, Ye.V.Mixaylova investitsiya tushunchasini «investitsiyalar – kelajakda daromad yoki ijtimoiy samara olish maqsadida kapitalni har qanday shaklda qo‘yish sifatida ifodalanadi», deb ta’riflagan (Mixaylova E. A., Orlova L. N. Ekonomicheskaya otsenka investitsiy: Uchebnoe posobie. – Rybinsk: RGATA, 2008.– 176 s.).

L.L.Igonina esa o‘zining «Investitsii» nomli o‘quv qo‘llanmasida «investitsiya – bu investor tomonidan resurslarni maqsadli sarflash hisobiga foyda olishga yo‘naltirilgan jarayondir», deb ta’riflagan (Igonina L.L. Investitsii. M.: Ekonomist’, 2005. — 478 s.). Masalan, A.Emelyanov hududlarda sarflangan investitsiyalar samaradorligiga salbiy ta’sir etuvchi asosiy omil sifatida baholar o‘rtasidagi nomutanosiblikni ko‘rsatadi (Emelyanov A. Strukturnaya perestroyka: seli i rezultaty//Ekonomist. – Moskva, 2008. - №2. - S. 88.).

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan D.G‘.G‘ozibekov va T.M.Qoralievlar investitsiyani daromad (foyda) yoki ijtimoiy samara keltiradigan va tadbirkorlik, ishbilarmonlikning davlat tomonidan ta’qilangan faoliyatlariga jalb qilinadigan barcha turdagи mulkiy va intellektual boyliklar deb ta’riflaydilar (G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T. “Moliya” nashriyoti. 2003, 26 b.).

Shuningdek, «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida «investitsiya iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlar», deb ta’riflangan. Yuqorida gilardan kelib chiqqan holda, «investitsiya» atamasining juda keng tushunchaga ega ekanligidan kelib chiqib, investitsiyasiga ta’rif berayotganda sohaning barcha jihatlarini umumlashtirgan holda quyidagicha ta’rif berish lozim: «Investitsiya – investor tomonidan ma’lum muddatga moddiy-texnik va intellektual boyliklarga sarflangan mablag‘lar asosida kelajakda foyda olish tushuniladi».

Investitsiya mohiyatini aks ettiruvchi ushbu ta’rifga binoan, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida investor ma’lum muddatga moddiy-texnik va intellektual boyliklarni sarflashi natijasida kelajakda foyda olishi, turli sohalarini iqtisodiy-moliyaviy o‘sishini ta’minlaydi. Bu o‘z o‘rnida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning «Investitsiya sohasi mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini, barqarorligini ta’minlaydi va xalq xo‘jaligini barcha tarmoqlarining jadal o‘sishi, bo‘lg‘usi yuksalishning muhim poydevori bo‘lib xizmat qiladi», - deb ta’kidlagan fikriga mos keladi (Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2010. – 65 b.). Investitsiya iqtisodiyot holatini tavsiflovchi «asosiy birlamchi» elementi degan xulosa qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomisheskix resheniy./usheb./O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.

-
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz./usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Myers S.S. Principles of corporate finance. McGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. - p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. - p. 177-195.
6. Kumri Nomozova. Evolutionary theory of prepreneurial risk in labor market research in the past. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie texnologii. 2025. - s. 581-587.
7. Nomozova Qumri Isoyevna. Tadbirkorlik faoliyat bilan bog'liq risklarni sug'urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rynok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionnyi mehanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomisheskoe razvitiye i analiz, 2024. - s. 338-345.
9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug'urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. - 44-48 b.
10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.
11. Qumri Nomozova. O'zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug'urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rynok Uzbekistana. 2024. - 7-10 b.
12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi- T.: "Iqtisod- moliya", 2013. - 128 b.
13. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliyaviy Darslik. - T.: "Sharq", 2010. - 804 b.
14. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Pers angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finans i statistika, 1996. - 800 s: il.
15. Publis Finanse: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Cengage Learning
16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati.-T.: "Akademnashr", 2011.- 472 b.